

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borishi yangi turdagi jinoyatlar, xususan, kiberfiribgarlikning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Kiberfiribgarlik – internet va raqamli axborot tizimlari orqali amalga oshiriladigan firibgarlik harakatlari bo'lib, u asosan shaxsiy ma'lumotlar hamda moliyaviy resurslarni noqonuniy egallashga qaratiladi. Mazkur holat kiberxavfsizlik masalasini dolzarb ilmiy va amaliy muammoga aylantirmoqda.

RAQAMLI FIRIBGARLIK



So'nggi besh yil ichida O'zbekistonda kiberjinoyatlar soni 68 barobarga oshgan. Xususan, 2025-yilning o'zida 46 mingdan ortiq kiberjinoyat aniqlangan bo'lib, ular natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 1,2 trillion so'mdan oshgan.

O'zbekistonda kiberjinoyatlar soni va turlari so'nggi yillarda keskin o'sib bormoqda. Jumladan, 2019-yilda axborot texnologiyalari orqali 18 turdagi jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 62 turga yetgan.

Ma'lumot uchun: 2023-yilda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 6,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 44,4 foizga yetib, deyarli har ikki jinoyatdan biri axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan. Kiberjinoyatlarning asosiy qismini (98 foizini) bank kartalari bilan bog'liq jinoyatlar – kibero'g'rilik va kiberfiribgarlik tashkil etmoqda. Kiber tahdidlarning eng katta qismi mamlakatning AKT sektori (51,4 %), davlat sektori (24,2 %) hamda moliyaviy sektorga (13,6 %) to'g'ri keladi.

Kasperskiy laboratoriyasining interaktiv kibertahdid xaritasiga ko'ra, axborot sektoriga hujumlar soni bo'yicha O'zbekiston 2025-yil 10-yanvar holatiga ko'ra 43-o'rinni egallaydi.

Kiberjinoyatlar sodir etilish ulushi

Kiberfiribgarlik quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilmoqda:



Normativ-huquqiy asoslar

Kiberfiribgarlikka qarshi kurashish uchun yetarlicha normativ-huquqiy baza shakllantirilgan. Jumladan, Jinoyat kodeksining 168-moddasida axborot tizimlari va texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi va "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunlar hamda Prezidentning 2019-yil 14-sentabrdagi PQ-4452-son qarori asosida "Kiberxavfsizlik markazi" DUK tashkil etilgan.

2024-yil 8-iyulda esa O'zbekistonda UzSOC kiberxavfsizlik monitoring markazi ochildi. Uning asosiy vazifasi davlat infratuzilmasida kiberhujumlarni aniqlashdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, kiberjinoyatlar O'zbekiston uchun jiddiy tahdid bo'lib, ularning oldini olishda kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi. Qonunchilik bazasini mustahkamlash, zamonaviy himoya vositalarini joriy etish hamda aholining raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va innovatsion yechimlarni amaliyotga tatbiq etish raqamli muhit xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biridir.

Baxodir RUZIYEV,
Adliya vazirligi huzuridagi Qonunchilikni
tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash instituti
yetakchi maslahatchisi

Bojxona sohasida SUN'IY INTELLEKT



Bugungi kunda iqtisodiyotning globalashuv jarayonlarida bojxona sohasida davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, tashqi savdoni tartibga solish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash muhim o'rin egallaydi. Xalqaro savdo hajmining ortishi, tovar turlarining ko'payishi bojxona organlari oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ana shunday sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalarini bojxona sohasiga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham bojxona tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellekt asosida modernizatsiya qilish jarayonlari yuqori bosqichga ko'tarilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarda bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish, inson omilini kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli alohida ta'kidlangan.

Jumladan, bojxona sohasida sun'iy intellektdan foydalanish natijasida xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish, bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonlarini avtomatlashtirish, rentgen va skaner tasvirlarini tahlil qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining ishonchlilik darajasini baholash imkoniyatlari kengaymoqda. Natijada inson omili bilan bog'liq xatolar va korrupsion holatlar sezilarli darajada kamayadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi, ma'lumotlar tahlilini yanada aniq va xolis amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bojxona nazoratining eng muhim yo'nalishlaridan biri – xavfli va noqonuniy tovarlarni aniqlash hisoblanadi. Avval bojxona nazorati asosan xodimlarning tajribasi va subyektiv baholashiga asoslangan bo'lsa, hozirda sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar joriy etilmoqda.

Xususan, rentgen qurilmalari orqali olingan tasvirlar sun'iy intellekt yordamida tahlil qilinib, quyidagi holatlar avtomatik aniqlanadi:

- ✓ kontribanda tovarlari;
- ✓ taqiqlangan yoki cheklangan mahsulotlar;
- ✓ deklaratsiyada ko'rsatilmagan tovarlar;
- ✓ xavfli va noqonuniy yuklar.

Bu esa bojxona nazorati samaradorligini oshirish bilan birga, inson omili ta'sirini kamaytiradi hamda tekshiruv jarayonlarini tezlashtiradi.

Sun'iy intellekt asosida takomillashtirilayotgan "xavf tizimi" bojxona sohasida muhim innovatsion yechim hisoblanadi. Ushbu tizim Jahon banki mutaxassislari ko'magida ishlab chiqilib, tadbirkorlarning ishonchlilik darajasini 122 ta mezon asosida baholaydi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- ✓ moliyaviy barqarorlik;
- ✓ tashqi savdo faoliyati tarixi;
- ✓ bojxona qonunchiligiga rioya qilish darajasi;
- ✓ soliq va boshqa majburiyatlarni bajarish holati.

Natijada halol tadbirkorlar uchun bojxona rasmiylashtiruv jarayonlari soddalashadi, tekshiruvlar soni qisqaradi, vaqt va xarajatlar tejaladi. Bu esa mamlakatda biznes muhitini yaxshilash hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini bojxona sohasiga joriy etish O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega islohot hisoblanadi. U bojxona nazorati samaradorligini oshirish, tadbirkorlar va xorijiy turistlar uchun qulayliklar yaratish, tashqi savdo xarajatlarini qisqartirish hamda davlat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Feruza SALIXOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
katta o'qituvchisi